

Oriental Journal of Philology

ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

**LEXICOGRAPHICAL CLASSIFICATION OF LINGUISTIC TERMS****Mirmukhsin Yuldashev***Doctoral student, Kokand State University**E-mail: yulmirmuxsin@gmail.com**Kokand, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** interdisciplinary terms, reduplication, abbreviation, calques.**Received:** 23.10.25**Accepted:** 24.10.25**Published:** 25.10.25**Abstract:** Terminology as a special field of knowledge is attracting increasing attention from researchers. This is explained by the international nature of modern scientific knowledge. The concepts of “term” and “terminology” have numerous definitions, and the ones they propose deserve special attention. In recent years, in the field of terminology, works of Uzbek linguists devoted to many aspects of the formation of terminology in one or another branch of knowledge are worth to pay attention.**TILSHUNOSLIK TERMINOLOGIYANING LEKSIKOGRAFIK TAVSIFI****Mirmuxsin Yuldashev***Doktoranti, Qo‘qon DU**yulmirmuxsin@gmail.com**Qo‘qon, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA****Kalit so‘zlar:** sohalararo terminlar, reduplikatsiya, abbreviatura, kal’kalar.**Annotatsiya:** Terminologiya maxsus bilim sohasi sifatida tadqiqotchilar e’tiborini tobora ko‘proq o‘ziga jalb qilyabdi. Ushbu hodisa, o‘zining xalqaro ahamiyati va ijtimoiy-madaniy sohalarning turli yo‘nalishlarida zamonaviy ilmiy bilimlarning tabiatida hamda o‘zaro integratsiyasida til to‘siqlarini bartaraf etish va natijada atamalarni birlashtirish istagi bilan izohlanadi.**ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ****Мирмухсин Юлдашев***Докторант Кокадского ГУ*

О СТАТЬЕ

Ключевые междисциплинарные редупликация, аббревиатура, кальки.	слова: термины,	Аннотация: В статье представлен комплексный Терминология как специальная область знания привлекает все большее внимание исследователей. Это объясняется международным характером современных научных знаний, В последние годы в области терминоведения благодаря исследовательским работам узбекских лингвистов. Понятия «термин» и «терминология» имеют многочисленные определения, предложенные ими заслуживает особое внимание. В узбекском языкознании отмечены отдельные работы, затрагивающие аспекты формирования терминологии в той или иной отрасли знания.
---	---------------------------	---

Kirish. Turli tillar tizimidagi lingvistik terminlarni tavsiflash muammosi fanda hali ham o'z yechimini topganicha yo'q. "klassifikatsiya" (tasnif) termini (lat. classis "toifa" +facio "ajratyabman") ikki tushunchani o'z ichiga oladi: darajalarga qarab toifalarga ajratish hamda obyektlarni tasnifini, sinflar kesimini yaratish yordamida bir-biriga bog'liq tushunchalar tizimini tuzish. [1] Ilmiy klassifikatsiya-chuqur ilmiy izlanish yo'lida hodisalarning sun'iy sinflarga ajratish uslubidir. Bunday bo'linish toifa va darajalarni ma'lum bir chegaralari nafaqat izlanuvchining biror-bir atamani qaysi bilim sohasiga kirish yoki kirmasligini belgilash bilan, balki tadqiqotning umumiy mazmuniga ko'ra ham, tadqiqotning maqsadiga bog'liq bo'lishi mumkin. Terminlar maxsus bilim sohasining belgilar birligi sifatida qaralganda uch jihatdan ko'rib chiqilishi mumkin:

- ularning shakli va tuzilish nuqtai nazaridan
- ularning ma'nosi jihatidan
- ularning gaplarda va matnlarda ishlatilinishi jihatidan. [2]

S.V.Grinevichning atamalarining struktur-tarixiy tahlili terminlarning quyidagi tiplarga ajratsa bo'ladi [3]:

1) Tub (an'anaviy) terminlar, tilde paydo bo'lgan va uzoq vaqtdan buyon mavjud bo'lgan terminlardir.

a) Hosila bo'lmagan atamalar (rus. *непроизводные термины*), tilning boshqa sathidan (shevalardan, va boshqa terminologiyadan) o'zlashgan atamalar:

b) Hosila bo'lgan atamalar (rus. *производные термины*), morfologik yoki sintaksis yo'llar bilan shakllangan atamalar kiradi:

-kompozit terminlar (ikki va undan ortiq soʻz (uzak) yoki terminologik birliklarni oʻzaro birikishi orqali soʻz yasash usulidir. Bu usul bilan asosan qoʻshma soʻzlar ham yasaladi.

Elipsis- (gr.-tushish, tushhirilish) Nutq unsurining tushib qolishi. Nutqda ellipsis turli, turli maqsadlar bilan (mas. iqtisod talabi bilan) yuz beradi. Undan odatda uslubiy figura sifatida foydalaniladi. Tilda esa turli sabablar bilan yuz beradi. Mas. ugra oshi (ugra bilan tayyorlashgan osh) birikmasidagi osh soʻzining ellipsisga uchrashi (tushishi) natijasida ugra soʻzi yangi ma'noga ega boʻlgan (ovqat nomiga aylangan); Bozordan qaytishga tayorlangan ovqat serqatiq ugra ekan. Nutqiy ellipsis juda koʻp uchraydigan hodisa. Mas., Yaxshilar koʻpaysin, yomon qolmasin (odam soʻzi ellipsisga uchragan).

Abbreviatura- Termin yasashning abbreviatura uslubi (ital. abbreviatura < lot. Abbrevio-qisqartiraman) - q. qisqarta soʻzlar. Ogʻzaki yoki yozma nutqda ishlatiladigan qisqartmalar va soʻz yasahning affikssiz uslubi. Mas. FarDU, NamDU, RF, AQSH, kolhoz, завуч, главврач. Termin-kal'kalar (boshqa tillardan soʻz yasash, sintaktik strukturasi yoki terminning semantikasi). Xuddi shu yer da bir elementi oʻzlashma boʻlgan yana bir elementi esa tub (rus.исконные слова) terminlardan tashkil topgan gibril-terminlarni ham aytib oʻtish mumkin. Terminlarning rivojlanishi va yasalishining muammolari haqida gapiradigan boʻlsak asosiy (koʻp ochraydigan) terminlarni va periferik kamdan-kam uchraydigan terminlarni aytib oʻtishimiz maqsadga muvofiq boʻladi.

- termin reduplikatlar (takror) -tilning ogʻzaki nutqida va baʼzida badiiy nutqda ekspressivlikni va xosil qilish uchun, terminning ikkinchi oʻzagi birinchi oʻzagining takrori boʻlishi. (Mas.: kichik-kichik, kuchlidan-kuchli, zoʻrdan-zoʻr, birma-bir, jimitdek-mimitdek, маленький-премаленький, пока-пока

1. Toʻliq reduplikatlar: Aniq va toʻliq ikkinchi soʻzni birinchi soʻzga nisbatan takrorlanishi.
2. Qisman reduplikatlar: ikkinchi soʻzning birinchi soʻzga nisbatan unli harfi oʻzgarishi bilan takrorlanishi.

3. Undosh oʻzgarishi bilan yasaladigan qisman reduplikatlar.

4. Ma'no jihatidan yoki shartli-barqaror reduplikatlar (1.1 jadvalga qarang).

1.1 jadval

3. Reduplikatlar	Ma'nosi	Izoh
Hocus pocus, Фокус-мокус	Fokus-mokus. Ayyorlik yoki yolgʻon ma'nosida.	Lotin tilida paydo boʻlib, rus tili orqali oʻzbek tiliga kirib kelgan,
Super-duper//супер-мупер	Super-muper	ogʻzaki nutqda emotsional-kinoyali, koʻpincha ijobiy baxo berishda ishlatiladi.

4. Reduplikatlar.		
Step by step / шаг за шагом Little by little /немного по немного again and again/снова и снова	Qadam-baqadam Oz-ozdan (asta-sekinlik bilan) Yana va yana	Tilning badiiy diskursida keng qo‘llanilishi mumkin,

-- belgi-so‘zli terminlar: harfli va sonli belgilardan iborat bo‘lgan belgilar majmui. V.M.Leychik belgi-so‘zli terminlarni paydo bo‘lishini ana'anaviy leksik vositalarni yetarli darajada mukammal bo‘lmagani bois turli xil semiotik belgilar (kimyoviy formulalar, harflar va h.) paydo bo‘lishni boshlaydi. [5]

--ko‘p komponentli terminlar: tarkibiga ikki va undan ortiq o‘zakli morfemalarga ega bo‘lgan termin yoki so‘zlar. Misol uchun uch komponentli murakkab birikma terminlarni keltirib o‘tishimiz mumkin: bir tinish belgisi (;) sof bog‘lama -leksik ma'nosini yo‘qotgan, sof grammatik vazifa bajaruvchi bog‘lama. Mas.,edi, ekan. (1.2 jadvalga qarang).

1.2 jadval

	Rus tildagi termin	O‘zbek tildagi tarjimasi	Ingliz tilde
1.	Служебная часть речи	Yordamchi so‘z turkumi	Functional part of speech
2.	Простое предложение	Oddiy gap	Simple sentence
3.	Словосочетание	So‘z birikmasi	Phrase/word combination
4.	Условное наклонение	Shart mayli	Conditional mood
5.	Часть речи	So‘z turkumi	Part of speech
6.	Сравнительная степень	Qiyosiy daraja	Comparative degree

Ot+ot qolipidagi birikmalar

Tilshunoslik terminlarining lisoniy materiallarini tahlil qilganda ot+ot qolipidagi (ingliz tilida N+N) lingvistik terminlar sodda birikma terminlar tasnifiga kirishini ta'kidlab o‘tish kerak. Ot+ot terminlari ikki mustaqil ma'noli leksema (termin)ning tobe-hokimlik birikuvidan tarkib topadi, bunday sodda birikma terminlari u yoki bu tushunchani aniqlikni yo‘qotmagan xolda ixcham ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu tufayli ulardan barcha terminlogik tizimlarda bo‘lgani kabi (AKT sohasida: homepage-bosh sahifa, head computer-bosh kompyuter [6], Ekologiyaga oid: litter bin-мусорный бак-ahlat qutisi [7], Soliq-bojxona sohasiga oid: tax control, customs duty, head of tax inspection, [8],) tilshunoslik terminologiyasida ham juda faol qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Матвеева Е.Е. Лингвокультурологические особенности формирования лингвистической терминологии: Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. / Москва, 2012 – С.59
2. Суперанская А. В., Подольская Н. В., Васильева Н. В. Общая терминология: вопросы теории. 6-е изд. М. : Либроком, 2012. С.148
4. Гринев-Гриневиц С.В. Терминоведение. М.: Академия, 2008. С.44
5. Лейчик В.М. Терминоведение. Предмет. Методы. Структура. М.: Изд- во ЛКИ, 2007.С.56.
6. Кадирбекова Д. Инглизча-ўзбекча ахборот технологиялари терминологияси ва лексикографик масалалари: Филол. фан. д-ри. дис. – Тошкент, 2017. – Б.66
7. Палуанова Х.Инглиз, ўзбек, рус, қорақалпоқ тилларида экологик терминларнинг деривацион принциплари: Филол. фан. д-ри. дис.авторреферати. – Тошкент, 2016. – Б.22
8. Ахмедов.О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари: Филол. фан. д-ри. ...дис. – Тошкент, 2016. – Б.78